



## BUGUNGI ADABIY JARAYONDA NASR

**Hodiyeva Habiba  
Nurmamat qizi**

*O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti  
O'ZMPU Filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyoti  
yo'nalishi 401-guruh talabasi*

**Annotatsiya:** Adabiy jarayonda nasr janri alohida o'rin egallab, jamiyat hayoti, inson ruhiyati va kechinmalari, tarixiy xotira va zamonaviy muammolarni aks ettirib kelmoqda. Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek nasrining asosiy mavzulari, yo'nalishlari hamda yetakchi ijodkorlar faoliyati keng qamrovda yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** qo'rquv, uyatchanlik, bolalar, tarbiya, oila, ona, ertak, maqtanchoqlik, yaxshilik, yomonlik

**Аннотация:** Прозаический жанр занимает особое место в литературном процессе, отражая жизнь общества, человеческую психику и опыт, историческую память и современные проблемы. В данной статье всесторонне рассматриваются основные темы, тенденции современной узбекской прозы, а также деятельность ведущих деятелей.

**Ключевые слова:** страх, застенчивость, дети, воспитание, семья, мать, сказка, хвастовство, добро, зло

**Abstract:** The prose genre occupies a special place in the literary process, reflecting the life of society, the human psyche and experiences, historical memory and modern problems. This article comprehensively covers the main themes, trends of modern Uzbek prose, as well as the activities of leading creators.

**Keywords:** fear, shyness, children, upbringing, family, mother, fairy tale, boasting, good, evil

### KIRISH

Mustaqillik davri o'zbek adabiyotida tub burilish yasadi. Bu davr adabiy jarayonida nasr janri alohida o'rin egallab, jamiyat hayoti, inson ruhiyati, tarixiy xotira va zamonaviy muammolarni aks ettirishda keng imkoniyatlarni namoyon etdi. Hozirgi o'zbek nasri an'anaviy realizm, modernizm va postmodernistik izlanishlar uyg'unligi asosida rivojlanib bormoqda.

Yozuvchilar endilikda faqat voqelikni tasvirlash bilan cheklanmay, balki inson ichki dunyosini chuqur tahlil qilishga, falsafiy mushohada yuritishga intilmoqdalar. Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek nasrining asosiy mavzulari, yo'nalishlari hamda yetakchi ijodkorlar faoliyati keng qamrovda yoritiladi. Zamonaviy nasrlarimizda asosan inson va jamiyat muammolari, tarixiy xotira va milliy o'zlik masalasi,

qahramonning kechinmalari, qishloq va shahar hayoti tasvirlari, ramziy belgilar orqali voqealarni ochib berish tasvirlari, ichki monologlar va psixologik nasr, javobsiz muhabbat ozorlari, jamiyatda uchrab tiradigan ijtimoiy-siyosiy, keng qamrovli muammolar tasviri yoritib kelinmoqda.

### ASOSIY QISM

Hozirgi o'zbek bolalar adabiyotida eng dolzarb mavzulardan biri – farzandimizni kitobga bo'lgan qiziqishlarining kamayib ketganligi, bolalarimizni kitobga bo'lgan qiziqishi kamayib, telefonga bog'lanib qolganligini ko'rishimiz mumkin. Ammo hozirgi bolalar adabiyotida samarali faoliyat olib borayotgan o'zbekistonlik bolalar yozuvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD) va ilk rivojlanish bo'yicha mutaxassisimizni o'rnak qilib ko'rsatsak bo'ladi. Chunki, Dinora Mo'minova O'zbekistonda bolalar adabiyoti bozori, kitobxonlik madaniyati va ta'lim sifatini oshirish bo'yicha o'z fikrlari va tahlillari bilan ommaviy axborot vositalarida chiqishlar qilganligini ko'rishimiz mumkin. U bolalar uchun kitoblar yozgan. Masalan, “Quyoshning sirli botishi”, “Ajoyib kaktus”, “Uyatchan fil”, “Soy bo'yida”, “Mening Alifbe kitobim” kabi kitoblari bor. Yrtimizda esa ko'proq bolalar adabiyotining sifatini oshirish va yosh avlodni kitobxonlikka jalb qilish borasidagi faolligi bilan tanilgan.

Bir kanalda bolalar adabiyoti yozuvchisi Sa'dullo quronovning shunaqa fikrlariga ko'zim tushgandi: “Uyimizda Dinara Muminovaning ashaddiy muxlisi bor. Ismoil 3 yoshidan beri yozuvchining rasmi kitoblarini “o'qib” keladi. Hayotda biror voqeaga duch kelsa, haligi kitobda bor edi-ku deb eslab ham qo'yadi. Masalan, o'tgan kuni katta aks sadoga duch keldik. Men tovush havoda to'lqin kabi harakatlanadi, keyin biror to'siqqa tegib qaytadi. Shunda bir aks sadoni eshitamiz deya tushuntirsam, Ismoil: “Tomchi” degan kitobda bor-ku” deb qoldi. Xursand bo'lib ketdim. Ismoil yaqinda alifbeni tugatib, o'zi mustaqil o'qishni o'rgandi. Endi sevimli yozuvchisining kitoblarini o'zi o'qiyapti. Shu kunlarda “Soy bo'yida”, “Quvonch”, “Uyatchan fil”, “Alifbe” kitoblarini o'qidi. Eng yoqqani “Quvonch” ekan. Sababini so'rasam, “Men bilmagan shirinliklar haqida ekan” dedi. Chindan ham bu kitob hozirgi bolalar deyarli ko'rmay qo'yan, bolaligimizning noz-u ne'matlari haqida ekan. Unda milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz o'ziga xos tarzda, juda samimiy illyustratsiyalar bilan ifodalangan. O'zim ham shu kitobni o'qib Chorsu bozoriga borib, bolalarimga shu shirinliklarni olib berishni ko'nglimga tugib qo'ydim”. Bilasizmi, ularning kitoblarini varoqlar ekansiz, avvalo kitobning dizayni sizni o'ziga jalb qiladi. Har bir holat va manzaraga, voqealarga mos ravishda juda chiroyli rasmlar bilan bezatilganligi va turli ranglar ishlatilganligi albatta, bolani o'ziga jalb qiladi. Buni Ismoilning 3 yoshidan beri qiziqib bu kitoblarini o'qiyotganligini keltirishimiz mumkin.

“Uyatchan fil” hikoyasida o'zining kattaligidan, boshqalardan ajralib turishidan iymanadigan, juda odobli va uyatchan filcha haqida so'z boradi. U o'zning bu hislati tufayli turli qiziqarli vaziyatlarga tushadi, biroq oxir-oqibat o'ziga bo'lgan ishonchini topadi va samimiylik eng go'zal fazilat ekanligini anglab yetadi. Bolalalar uchun bu hikoyaning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, hech qachon ko'rinishingizdan nolimang. Zero, siz borliqdagi eng go'zal yaratilgansiz. Bu hikoyani farzandimizga o'qib bergan paytimizda, unga ham birqator savollar berib, fikrini so'rashimiz mumkin. Masalan, “Agar sen filchaning do'sti bo'lganingda...” nima qilishlarini so'rashingiz va hikoyani

farzand tarbiya va fikrlashiga qanchalik ta'sir qilganligini ko'rishingiz mumkin. Farzand tarbiyasida bu kabi kitoblarning yaratilishi onalar uchun albatta samarali ko'prik vazifasini o'taydi. Masalan, birgina shu hikoyaning ko'p tarbiyaviy ahamiyati bor. Hech qachon uyalib, iymanib o'tirmaslik va boshqalar bilan muloqot qilayotganda fikrimizni aytishga qo'rqmaslikni, samimiylilik va odob orqali eng qattiqqo'l va badjahl insonning ham ko'nglini toppish mumkinligini va do'stlikda asosan, tashqi ko'rinish emas, balki ichki dunyo va xulq – atvor muhimligini katta rol o'ynaydi. Filcha katta va haybatli bo'lishiga qaramasdan, hech qachon o'zining bu kabi kuchini ko'rsatib maqtanmaydi. Bu bolalarga kuchli bo'la turib, muloyim bo'lish kerakligini, maqtanchoqlik inson boshiga kulfatlar keltirishi, kamtarli bo'lmoqlik kuchsizlik emas, aslida yuksak tarbiya va odob namunasi ekanligini ko'rsatib beradi.

### **XULOSA**

Hozirgi vaqtda bolalar adabiyotida yetakchi va tarbiyaga qaratilgan kitoblarning kun sayin ortib, zamonaviy yo'nalishlarda chiqayotganligini ko'ramiz. Dinora Mo'minovaning ijodi esa asosan bolalar adabiyoti va kichik yoshdagi kitobxonlarning ma'naviy olamini shakllantirishga qaratilgan. Uning asarlarining o'ziga xosligi bu ularning soddaligi va psixologik teranligidir. Adibaning deyarli barcha kitoblarida insoniy fazilatlar ulug'lanadi, yomon illatlar qoralanadi. Yaxshilik va yomonlik, rostgo'ylik va yolg'on, kamtarlik va manmanlik o'rtasidagi kurashlar haqida hikoyalarda sodda ravishda rasmlar bilan tushuntiradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mo'minova, D. (2018). Uyatchan fil. Toshkent: "Yangi asr avlodi".
2. Mo'minova, D. (2020). Aqlli kirpicha va uning do'stlari. Toshkent: "O'zbekiston".
3. Jabborov, N. (2015). Adabiyot va milliy ma'naviyat. Toshkent: "Ma'naviyat". (Bolalar adabiyotining nazariy asoslari uchun).
4. Qurbonova, M. (2021). Zamonaviy o'zbek bolalar adabiyotida badiiy mahorat masalalari. Ilmiy monografiya. Toshkent.
5. Safarov, O. (2009). O'zbek bolalar adabiyoti. Toshkent: "O'qituvchi". (Qiyosiy tahlil uchun darslik).
6. Yo'ldoshev, Q. (2006). Yoniq so'z. Toshkent: "Yangi asr avlodi". (Badiiy tahlil metodologiyasi bo'yicha).

### **Foydali elektron resurslar va saytlar**

1. Ziyonet(ziyonet.uz)
2. Kitobxon.com
3. National Library of Uzbekistan (natlib.uz)
4. Google Scholar
5. Asaxiy.uz / Akademnashr.uz